



UDK 81/82

ALBERT KAMYU: ABSURDIZMINING FALSAFIY TAHLILI

Djurayev G'olib Abdurasulovich
ALFRAGANUS UNIVERSITY, katta o'qituvchisi
TDSHU, mustaqil tadqiqotchi
jorayev2144@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada fransuz ekzistensializmi namoyondalaridan biri Albert Kamyuning falsafiy qarashlari tahlil etiladi. Absurd va uning inson psixologik obrazida namoyon bo‘lishi o‘ziga xos falsafiy tizimga ega bo‘lib, hayotdan ma’no qidirgan insonning absurdga ro‘para kelishi ekzistensial krizis holatmi yoki haqiqarning bir ko‘rinishimi? Ekzistensializm, absurdizm va nigilizm nuqtai nazaridan absurdning qanday talqin etishi qiziqarli falsafiy tahlilning mazmunini tashkil etadi.

Kalit so‘zlar:absurdizm, ekzistensializm, erkinlik, mavjudlik, mohiyat, Jan Pol Sartr, Albert Kamyu, isyon.

АЛЬБЕР КАМЮ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ АБСУРДИЗМА

АННОТАЦИЯ В статье анализируются философские взгляды Альбера Камю, одного из представителей французского экзистенциализма. Абсурд и его проявление в психологическом облике человека имеют свою философскую систему. Является ли встреча с абсурдом человека, ищущего смысл жизни, состоянием экзистенциального кризиса или проявлением истины? Интерпретация абсурда с точки зрения экзистенциализма, абсурдизма и нигилизма составляет предмет интересного философского анализа.

Ключевые слова: абсурдизм, экзистенциализм, свобода, существование, сущность, Жан-Поль Сартр, Альбер Камю, бунт.

ALBERT CAMUS: PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF ABSURDISM

ABSTRACT This article analyzes the philosophical views of Albert Camus, one of the representatives of French existentialism. The absurd and its manifestation in the psychological image of man have their own philosophical system, and is the encounter with the absurd a state of existential crisis for a person seeking meaning in life or a manifestation of the truth? The interpretation of the absurd from the perspective of existentialism, absurdism and nihilism is the content of an interesting philosophical analysis.

Keywords: absurdism, existentialism, freedom, existence, essence, Jean-Paul Sartre, Albert Camus, rebellion.

KIRISH

XX asr boshlarida sodir bo‘lgan jahon urushlarining mudhish asoratlarini o‘z tanasida his qilgan, o‘z turmush tarzini, hayot falsafasini obyektiv voqelik ta’siri doirasida ekzistensial subyektivizmi, absurdizmni butun insoniyatga baralla aytaolgan, Nobel mukofoti sovrindori Albert Kamyu nafaqat fransuz falsafasi, balki Yevropa, G‘arb falsafasi orqali falsafa tarixida katta iz qoldirdi. A.Kamyu bir necha marta o‘zini faylasuf, ekzistensialist emasligini ta’kidlagan bo‘lsa-da, Sartrni guvohligini [1;182] deyarli barcha faylasuflar uni ekzistensialist deb tasdiqlashadi. Uning roman, qissa, hikoya, badia va hatto kundaliklaridagi yozuvlari ham adabiyot, fikr-tafakkur insonlari uchun doimiy ko‘ngil hamrohiga aylanib ulgurgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Albert Kamyu ilmiy merosini ayniqsa, uning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlarini o‘rganishda, tahlil qilishda bevosita uning “Begona”, “Vabo”, “Sizif haqida afsona”, “Kaligula” kabi badiiy-falsafiy esse va asarlari birlamch manba bo‘ladi. Bundan tashqari V.Alimasov, I.Mo‘minov, G.M.Ruzmatova, X.Do‘stmuhammad, A.Saidov, Abdulla Sher kabi adib va faylasuflarning Albert Kamyu absurd ta’limotini o‘rganishga salmoqli hissa qo‘shganlar.

Alber Kamyu ijodi badiiy adabiyotda, jumladan falsafiy tarixiy adabiyotlarda ko‘pgina buyuk G‘arb mutafakkirlari tomonidan o‘ziga xos uslubda, o‘z zamonasiga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan. Bunga ko‘plab misollarni keltirishimiz mumkin va ularning durdona fikrlaridan bugungi kun talabiga to‘liq javob bera oladigan yechimlarni ham topishimiz mumkin.

Jumladan, A.Kamyu ijodini yorituvchi rus tadqiqotchilari S.I.Velikovskiy, YE.P.Kushkin, A.F.Zotov, A.M.Rutkevich, Y.K.Melvil va boshqalarni ishlarini, tadqiqotlarini, risolalarini, maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Jumladan, mazkur tadqiqotlarda buyuk mutafakkirning dunyoqarashi, inson haqidagi ta’limoti, ijtimoiy-axloqiy merosi aks etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish mobaynida dialektik, tizimlashtirish, taqqoslash, tarixiylik va vorisiylik tamoyillaridan foydalanildi.

NATIJA VA TAHLILLAR

Alber Kamyu (1913-1960) fransuz faylasufi, ahloqshunos va adibi bo‘lib, uning asarlarida zamonaviy hayotga xos bo‘lgan begonlashish ko‘rib chiqiladi va u o‘zining absurd falsafiy kontsepsiyasi bilan mashhur bo‘ldi. U o‘zining mashhur “*Begona*”(1942), “*Vabo*”(1947), “*Quloq*”(1956) romanlarida, “*Sizif haqidagi afsona*” (1942) va “*Isyonchi*”(1951) falsafiy esselarida bu g‘oyalarni tadqiq qildi. 1957 yilda adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlangan.

Ekzistensialist faylasuflarning fikriga ko‘ra, inson hayoti olamning oldindan aytib bo‘lmaydiganligi tufayli sirli bo‘lib, asosiy e‘tibor individual vakolat va o‘z harakatlari uchun shaxsiy javobgarlikka qaratilgan.

Sartr bilan zamondosh bo‘lgan Albert Kamyu bevosita ikki jahon urushini oqibatlarini ko‘rib qolmay bu ushush uning turmush tarzi va ongu-shuuriga kuchli ta‘sir etmay qolmadi. Taqdir unga in‘om etgan vatan o‘z ota-bobolari tomonidan bosib olingan Jazoir – asli Fransiyaning mustamlakasi edi. Pied-noir³⁷¹lar, ya‘ni, 1830 yilda fransuzlar bosib olgan Jazoirda tug‘ilgan fransuz va yevropaliklarning etnik-madaniy guruhida tavallud topgan Albert Kamyuning kolonizatsiyalashgan ijtimoiy-siyosiy muhitda uning dunyoqarashiga o‘zgacha iz qoldirganligini his qilish uchun, ekzistensial tanlovida absurdizmning vujudga kelishida, faol siyosiy-ijtimoiy jrayonlarga ta‘sirli munosabatlarni adabiyot orqali namoyon etishi falsafiy tahlil uchun dolzablikka ega. Ajablanarli jihati shunda-ki, Albert Kamyu vafotidan ikki yil o‘tgach Jazoir mustaqillikka erishdi.

Nemis ekzistensial-faylasufi Karl Yaspers 1951 yilda yozadi: «Qachonki, Parijda yosh odam o‘ziga jalb qiluvchi kiyimda yursa, erkin jinsiy hayot kechirsa, ishlamasa qahvaxonalarda ko‘p vaqtini o‘tkazsa, g‘ayri oddiy iboralarni qo‘llasa – uni ekzistensialist, deb ataganlar; yarim asr ilgari bunday hayot tarzida yashovchi insonni Berlinda – nitsshechi, deb atar edilar. Lekin birinchi toifadagi inson Sartr bilan hech qanday umumiylikka ega bo‘lmaganidek, ikkinchi toifadagi inson ham Nitsheddan shunchalik farq qilgan. Ular bu faylasuflarning asarlarini o‘qiganlar, lekin ularni asl ma‘nosini tushunmaganlar, mashhur asarlarining ko‘p mazmunli iboralarini yodlab olish bilan cheklanganlar, ulardan uslubiy mulohaza yuritish ko‘nikmasiga ega bo‘lmaganlar» [2;497]. Parijda zaruriy tarzda qora shiftlar bilan qoplangan «ekzistensial qahvaxonalar» paydo bo‘ldi, tashrif buyuruvchilarga «sog‘inch iztirobi», «qo‘msash», «mazmunsizlik» yoki «behuzurlik» kechinmalariga berilishlari, diqqatlarini jalb qilishlari yengil bo‘lishi uchun. Kamyuda bunday hayot tarzini modaga aylanishi e‘tiroz uyg‘otgan, «absurdchilik» klassiklari safiga o‘zini qo‘shmagan. «Pushaymonlik», «samoviy qayg‘urish» o‘yinlarini Kamyu tafakkurning qashshoqligi bilan bog‘lagan. «Haqiqatan, mening avlodim odamlari ko‘p narsani ko‘rdilar, dunyoning rang-barangligi, faqat manzara sifatida saqlanib qolgan, - deb yozadi Kamyu 1948 yilda, - ular qamoqxonalarni biladilar, tongdagi qatllarni ko‘rganlar, beayb o‘limni guvohi bo‘lganlar, yolg‘onning g‘alabasini ko‘rganlar. Lekin bu – pushaymon emas! Bu – aniqlikdir. Haqiqiy pushaymon, ko‘rlikni bildiradi. Bu g‘azab, zo‘ravonlik, qotillik bilan o‘lchanadi. Bunday turdagi pushaymon bilan men hech qachon kelisha olmayman». Albatta, Kamyu qora shiftli qahvaxonada vaqt o‘tkazishga da‘vat qilmagan, «absurdchilik» modasi uning ishtirokida tug‘ilmagan. Uning o‘zi juda murakkab hayotiy yo‘lni bosib o‘tgan. Bu yo‘lda ekzistensializmning nigilistik oqibatlarini yengib o‘tishga harakat qilgan. Bu evolyutsiya yo‘li uning ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi.

³⁷¹ 1830-yil 18-iyunda Fransiya bosqinidan to mustaqillikka erishgunga qadar Jazoir ma‘muriy jihatdan Fransiya tarkibiga kirgan; uning etnik Yevropa aholisi oddiygina jazoirliklar yoki *kolonistlar* deb atalgan. *Pied-noir* (fransuzcha, “qora oyoq”) atamasi 1962 yilda Jazoir urushi tugashidan biroz oldin keng tarqalgan.// <https://en.wikipedia.org/wiki/Pieds-noirs>

Kamyu «mantiqiy o‘zini o‘ldirishni» va Dostoyevskiyning Krillovini eslaydi. Biroq bu savolni «Yoki-yoki»da ko‘tarilishi unga yaqinroq bo‘ladi: «O‘z-o‘zini o‘ldirish – cheksiz erkinlikning salbiy shaklidir. Kimki ijobiy tomonini topsa, u inson baxtlidir». Kamyu «Sizif haqida afsona»sida diniy umid o‘lgan dunyodagi borliqdan ana shunday «ijobiy shaklni» qidirishni taklif qiladi. Kamyuning savoli shunday qo‘yiladi: yuksak mazmunsiz va farovonliksiz qanday yashash mumkin?

Dunyo o‘z-o‘zicha beburd emas, u faqat tafakkurdan holidir, u insondan tashqaridagi reallikdir. U bizning xohish-istaklarimiz va tafakkurimiz bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Lekin bundan dunyoni bilib bo‘lmaydi, degan xulosaga kelib bo‘lmaydi. Shopengauerning «irodasi» singari irratsionaldir yoki Bergsonning «hayotiy jo‘shqinligi»dir.

Xuddi shunday absurddan qochish «o‘z-o‘zini falsafiy o‘ldirishni» ham tashkil qiladi – «absurdlik panjarasidan» «sakrab» o‘tishdir. Birinchi holatda savol beruvchi butunlay qilingan, ikkinchi holatda – aniqlik o‘rnini sarob egallaydi, xohish reallik-mavjudlik sifatida qabul qilindi, dunyoga – insonga xos bo‘lgan xislatlar – aql, muhabbat, rahmdillik va boshqalar tatbiq qilinadi. Falsafiy doktrinalar, ular ratsional bo‘ladimi yoki noratsional bo‘ladimi, dinga tenglashadi. Chunki ularda mukammal ma‘no, tartib va mazmun bor, deb ta‘kidlanadi. Yaqqol ko‘ringan bema‘nilik, niqoblangan inson taqdiriga aylanadi. Absurdlik devorlari qulaydi: individual ong universal ongga solishtiriladi, xuddi Parmenidning «Yagonaligi»ga, Aflotunning «g‘oyalar dunyosi»ga yoki Kerkegor, Shestov va Yaspersning «Xudosi»ga. Lekin tafakkur aniqligi yo‘q. Kamyu bu yo‘lni «cheklanish» deb ataydi. Paskalning «ko‘ngil xushliklari»ga qiyoslaydi. Diniy e‘tiqodni Kamyu yaqqol ko‘rishning xiralashishi, deb hisoblaydi. Insonni bema‘ni mavjudligiga ko‘niktiruvchi, yoqlanmagan «sakrash»ga o‘xshatadi. Xristianlikni iztirob va o‘lim bilan kelishtiradi («O‘lim, qani sening zahring?»), lekin hamma transsendental tartib haqidagi isbotlar shubhalidir.

KarteziANCHILIKdan aniqlik timsolini hamda yaqqol tafakkurni meros qilib olib, Kamyu – Xudoning mavjudligi g‘oyasidan, uning haqiqatdan bor ekanligini keltirib chiqarib bo‘lmaydi – degan ontologik argument-dalilni inkor qiladi. «Absurdda sog‘lom fikr bir muncha ko‘proqdir, - deb yozadi Kamyu 1943 yilda, - Absurd yo‘qotilgan jannatni qo‘msashga iztirobli sog‘inchga bog‘lanadi» [3;1423].

Tasavvur aniqligini talab qilish, o‘z-o‘zi oldida haqoniy bo‘lishni bildiradi, bu har qanday yolg‘onlarga berilmaslik, kelishuvlardan bosh tortish, bevosita o‘z tajribasiga ishonch, undan ustun bo‘lgan hech qanday narsani yo‘qligini bildiradi.

Shunday o‘ziga xos pozitsiyada turib Kamyu: aniq aqliy tafakkurlashni targ‘ib qiladi. Bu Aflotundan boshlab Gusserlgacha hamma «metafizika olamining» yevropacha an‘analariga meros bo‘lib o‘tgan. Unga ko‘ra, aql namoyon bo‘lishga o‘xshatiladi, haqiqat – yorug‘likka yolg‘on-zulmatga, ilohiyot-yorug‘lik manbaiga yoki nurning o‘ziga. Bu metafizika goh ratsional tizimning xususiyatiga ega bo‘ladi, goh mistik doktrina xarakterini oladi. Lekin u doimo insoniy aqlni, tafakkuriylikni (yoki tafakkurdan ustunlikni) ilohiy nur bilan bog‘liqligini tan olgan. Kamyuga ko‘ra, aniq tasavvur faqat oxirgi mavjudotga berilgan. U o‘ziga begona bo‘lgan

dunyoga itarib, itqitib yuborilgan. Kamyu aynan aqlning ana shu yorug‘ tomonini har narsadan ustun qo‘yganligi uchun ham, inson borlig‘ining qorong‘u tomonlarini emas, balki mazmunni qidirishi bilan ham, «Sizif haqida afsona»sida ham chekka yevropacha nigilizm shakllaridan ancha yiroqda turadi.

Biroq absurd universal axloqiy normalarni inkor etilishi ham kelib chiqadi. Nitsshecha hayqiriqdan (entuziazmdan) xoli bo‘lmagan holda Kamyu absurddan shunday xulosani keltirib chiqaradi – «hama narsa mumkin». Yagona qadriyat sifatida faqat aniq tasavvur va kechinmalar to‘liqligi (jo‘shqinlik) qabul qilinadi. Absurdni o‘z-o‘zini o‘ldirish bilan yoki e‘tiqodga «sakrash» bilan yo‘qotish zarur emas, uni maksimal darajada, to‘liq holda yashab o‘tish kerak. Komediya, Don Juan, Istilochi, Yozuvchi o‘z-o‘zini namoyon qiladi, yengib o‘tadi. Insonda hech qanday dastlabki gunoh yo‘q, shakllanish (oyoqqa turish) «ayb emas», mavjudlikning yagona baholash mezonini ko‘rsatkichi asllik, ichki-autentik tanlovi bo‘lishi kerak.

San‘at o‘z-o‘zicha qadriyat bo‘la olmaydi, bu «ertangi kuni yo‘q ijoddir», u rassomga o‘z-o‘zini namoyon qilish quvonchini beradi, u o‘z ijodiy asarini yaratish ustida tinmay ishlaydi. Aktyor sahnada birin ketin ko‘p hayotlarni boshidan o‘tkazadi, yozuvchi (yo umuman, rassomning) «absurdlik holatining» tomoni o‘z-o‘zini intizomga solishda namoyon bo‘ladi, «bardoshlilik, chidamning va aniqlikning mahsuldor maktabi»dir. Ijodkor timsollar qamrovida bo‘ladi, afsonalar to‘qiydi, shu bilan birga o‘zini ham yaratadi, chunki tasavvur bilan borliq o‘rtasida hech qanday aniq chegara yo‘q.

«Sizif haqida afsona»sini yakuniga yetib qolganda Kamyu o‘zligini estetik jihatdan namoyon qilish borasidagi ilgari kelgan xulosalariga, keyinchalik shubhalari kuchayib boradi. Sartrning «Behudalik» nomli asariga yozgan taqrizida uni asosiy qahramoni bo‘lgan Antuan Rokantening isyoni «absurdlik ijodkorligiga» olib kelgani uchun e‘tiroz bildiradi.

Ko‘pgina aqliy faoliyat vakillari Nitsshe hikmatlarini ta’sirchan ahamiyatini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldilar. Kamyu yashirin holatda «Nemis do‘stiga maktub»ini yozayotganida, o‘shanda emigrant bo‘lgan Tomas Mann intellektuallarni nozik axloqsizlikka ta’qiqlovchi tamg‘a bosishlariga da’vat qilgan. Axloqsizlik uning fikriga ko‘ra, «qon va temir» nigilizmini dunyoga kelishiga yordam berdi: «Davr bizni vijdonimizni o‘tkirlashtirdi, bu esa fikrni hayot va mavjudlik oldida majburiyatlari, burchlari borligini ko‘rsatdi, ular oxirigacha o‘yingoh bo‘lib qoldi. Tafakkurdagi va adabiyotdagi spektakllar bor, ular bizlarni ilgariga nisbatan, kamroq hayajonga sola boshladi, bizlarga nonko‘rlik va ahmoqonolik bo‘lib ko‘rina boshladi. Ruh bugungi kunda axloqiy davrga kirdi, ezgulik va yovuzlikni yangicha axloqiy va diniy nuqtai nazardan ajratish davriga kirdi» [4;330-331]. Endilikda isyon, aksincha, «iflos dahshatni va qonli daryoni» keltiruvchi afsonaga qarshi qaratilishi lozim.

"Absurdizm" atamasi aniq nimani anglatadi? Boshqa odamlar absurdlarni qanday ko‘rishadi? Bu turmush tarzi kimgadir qanday ta’sir qilishi mumkin? Alber Kamyuning "Begona" romani bu kabi xavotirlarning ko‘pini ko‘taradi. Merso, yoshi o‘ttizdan oshgan yigit - bu oqilona romanning diqqat markazida. Hikoya uning hayotidagi voqealarning keng spektrini qamrab oladi, uning Mari bilan ishqiy munosabatidan tortib, qotillik uchun gilyotinga hukm

qilinishigacha. Mersoning absurd turmush tarzi va shaxsiy ideallari bu hodisalar davomida asoratlarni keltirib chiqaradi. Natijada, Kamyu absurdizm va aksil-madaniy dunyoqarashga rioya qilishning zararli oqibatlari haqida aniq muqaddima beradi. Boshqa zamonaviy mafkuralarga qaraganda, absurdizm kamdan-kam uchraydigan falsafa, ammo hali ham hayotiy o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Absurdlik - bu insoniyatning koinotda maqsad yoki mantiqiy tushuntirishga urinishlarini qo‘llab-quvvatlaydigan falsafiy qarashdir, chunki hech bo‘lmaganda odamlar uchun bunday ma‘no yo‘q. Bu kontseptsiyada absurdlik borliqning ma‘nosizligi va tasodifiyligiga ishonish sifatida ta‘riflanadi. Hayotdan maqsadni izlash befoyda deb topiladi. Ijtimoiy majburiyatni bajarish uchun tadbirlarda qatnashish ahmoqona tuyuladi. Bu “Begona”da keng tarqalgan mavzu bo‘lib, u tez-tez namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy tomonidan belgilangan me‘yorga rioya qilish o‘rniga, absurdlar boshqalar ulardan kutgan narsadan ko‘ra o‘zlariga tabiiy bo‘lgan narsani qilishni talab qiladilar. Ijtimoiy tartibot, me‘yor va axloqqa moslashish emas, balki xaqiqiylikka intilish quvvatlanadi.

Absurdizmning yetakchi namoyandasi sifatida Alber Kamyu odamlarga uning asosiy tamoyillari haqida ma‘lumot berishda ta‘sirchan bo‘ldi. Kamyu absurdizmning rivojlanishida hal qiluvchi shaxs bo‘lib, nazariyaning vakili bo‘lib xizmat qilgan. “Begona” kabi asarlarida u absurdlikni tadqiq qilgan. Aynan "Begona" asarida Kamyu absurdizm va uni insonning kundalik tajribasiga qanday qo‘llash mumkinligini ko‘rib chiqadi. Merso orqali Kamyu absurdizmning noan‘anaviy falsafalarining bir qismini isbotlaydi. Merso o‘zini “absurdist” sifatida ta‘riflaydi, u faqat o‘zi uchun muhim va unga tegishli bo‘lgan narsalarga e‘tibor beradi, ammo odamlar uchun o‘zining xatti-harakatlari qanday taassurot qoldirishi mumkinligi haqida mutlaqo o‘ylamaydi. Mersoning onasi vafotidan keyin bu falsafa paydo bo‘ladi. Merso onasi bilan so‘nggi vidolashuv onida, dafn marosimi direktori undan so‘radi: “Onangni yana bir bor ko‘rishni xohlaysanmi?” Mersoning bunga javobi oddiy “Yo‘q” [5;28]. Dafn marosimidan so‘ng, Merso uyga qaytishi haqida shunday hikoya qiladi: “...avtobus Jazoirning charog‘on chiroqlari oralab yurayotganda, hozir borib o‘zimni to‘shakka tappa tashaymanu o‘n ikki soat qotib uxlayman, deb quvonch bilan o‘ylaganim esimda.” Mersoning bu xatti-harakati istisno emas. Garchi bu jumlar Merso onasining o‘limi haqida qayg‘urayotgandek taassurot qoldiradi, ammo bu unday emas. Merso uchun onasining o‘limi ahamiyati yo‘qligini qabul qilish va davom etish yanada oqilona yondashuv bo‘ladi. Merso onasining o‘limi uchun qayg‘uradi, lekin u buni qilishga majbur emas. Ijtimoiy axloq normalariga amal qilishga majbur bo‘lmagan, aksincha, jamiyat e‘tirof etadigan axloq normalariga amal qilishni – shaxsiy erkinlikni chegaralash deb biluvchi tafakkurni Kamyu tasvirlab beradi.

Absurd falsafasida insonlarning o‘z borlig‘ini anglash va ma‘no topishga bo‘lgan cheksiz intilishlari bilan ma‘no yo‘qligi yoki insonning bu ma‘noni topa va anglay olmasligi o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatishga g‘amxo‘rlik qilinadi. Bu falsafada hayotning ma‘nosini inkor etish yo‘q, lekin da‘vo shuki, borliqda ma‘no mavjud bo‘lsa ham, odamlar bu ma‘noni tushunish yoki kashf qilish va ma‘noga ishonch hosil qilish qobiliyatiga ega emaslar.

XULOSA

Albert Kamyu va Kierkegorga ko‘ra, bema‘ni odam borliqda ma‘no izlaydigan tirik mavjudot sifatida uchta mumkin bo‘lgan echimga ega:

1. O‘z joniga qasd qilish - bu yechimda inson o‘z hayotiga nuqta qo‘yadi va ekzistensial absurdlikka javob sifatida birinchi niyat bilan o‘limga olib keladi. Albert Kamyu va Soren Kierkegor bu yechimni qo‘llab-quvvatlamaydi va ular o‘z joniga qasd qilish bema‘nilikning eng yuqori bosqichi deb hisoblashadi.

2. Din, diniy e‘tiqod, xudoga e‘tiqod - bu yechimda inson ilohiy mavjudotga ishonadi va shuning uchun olamda ma‘no borligiga butun qalbi bilan ishonadi. Ekzistensialist bo‘lgan Kierkegorning ta‘kidlashicha, Xudoga ishonish mantiqiy emas, lekin ba‘zida absurd muammosini hal qilish uchun inson hayoti uchun zarurdir. Boshqa tomondan, Albert Kamyu Xudoga ishonishga keskin qarshi chiqadi va uni “falsafiy o‘z joniga qasd qilish” deb ataydi, shu bilan birga Nitshening Xudoning o‘limi haqidagi qarashini ma‘qullaydi.

3. **Absurdni qabul qilish va tushunish** - bu yechimda absurd odam absurdni tushunadi va qabul qiladi va o‘z hayotining ma‘nosizligi va ekzistensial absurdlikka qaramay yashashni davom ettiradi. Alber Kamyuning fikricha, bu yechim ideal va eng yaxshisidir va absurd odam ekzistensial absurdlikni qabul qilishi va unga qarshi chiqmasligi, ayni paytda olib keladigan yaxshi narsalarni anglab, qadrlash orqali o‘ziga xos “isyon” ko‘rsatishi kerak.

Alber Kamyuning “Sizif haqidagi afsona” essesinde Kamyu nima uchun o‘z joniga qasd qilish yoki ilohiy mavjudotga ishonishni qo‘llab-quvvatlamasligini tushuntirishga harakat qiladi, u buni “falsafiy o‘z joniga qasd qilish” deb ataydi. Albert Kamyuning ta‘kidlashicha, diniy e‘tiqod bo‘lgan falsafiy o‘z joniga qasd qilish bema‘nilikdan qochishga urinishdan boshqa narsa emas. Imonning o‘zi mantiqiy emas va odamlar Xudoning mavjudligi yoki yo‘qligiga ishonch hosil qila olmaydi. Bundan tashqari, Kamyuning ta‘kidlashicha, haqiqiy o‘z joniga qasd qilish, xuddi falsafiy o‘z joniga qasd qilish kabi, ma‘nosiz dunyo o‘z joniga qasd qiluvchi odam uchun mos emasligi haqidagi bayonot va bu o‘z joniga qasd qilishdan qochishga urinishda namoyon bo‘ladigan absurdni qabul qilmaslikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jan Pol Sartr. Abdulla Sher tarjimasida. Ekzistensializm to‘g‘risida. Jahon adabiyoti. 1997. 5-son.
2. Jaspers K.(1968), Was ist Existenzialismus? //Aneigung und Polimik. Munchen
3. Camus A. (1965) Essais. Bibliotheque de la Pleiade. Paris.
4. Манн Т., Манн Г. Эпоха. Жизнь. Творчества. –М.,1988.
5. Камью, Альбер.Ахмад Аъзам таржимаси. 2023. “Бегона”. “Ёшлар матбуоти”.